O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY
va O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI

Toshkent Arhitektura Qurilish instituti

H. Obidov

# AutoCAD-2004 tizimida grafik ishlarni bajarish

O'quv qo'llanma

Toshkent-2008

004.92
O 14

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
va O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Toshkent Arhitektura Qurilish instituti

Informatika va kompyuter grafikasi kafedrasi

# AutoCAD-2004 tizimida grafik ishlarni bajarish

O‘quv qo‘llanma

TAQI Axborot resurs markazi
№ 8/14

Toshkent-2008

H.Abidov ,M.Murodova

AutoCAD-2004 tizimida grafik ishlarni bajarish . O'quv qo'llanma. Toshkent Arhitektura qurilish instituti. Toshkent. 2008

Ushbu qo'llanma "Kompyuter grafikasi "fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan. Kompyuter grafikasi fanining o'quv dasturiga qo'yilgan talablar asosida yozilgan. Amaliy mashg'ulotlar kursi hamma texnika Oliy o'quv yurtlari, maktab, litsey va kollejlarning chizmachilik asoslari, chizma geometriya to'g'risidagi tushunchasi hamda kompyuterda ishlash bilimi bor talabalar uchun mo'ljallangan. Hozirgi vaqtda Auto CADning dastur ta`minoti shaxsiy kompyuterlarning eng keng tarqalgan avtomatik loyihalash tizimi paketidir.

Ushbu o'quv qo'llanma har bir o'quvchidan sabr toqat va ziyraklik talab qiladi, chunki bu o'quv qo'llanmada faqat kompyuterda grafik ishlarini olib borish mashg'ulotlari emas, balki olgan bilimlarini mustahkamlash uchun bir necha variant turlari berilgan. Har bir mashg'ulotdan so'ng talaba bilimini tekshirib korishi uchun birorta variant tanlab, uni oxirigacha mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin, grafik ishlar ohiriga yetkazilmay qolgan holatlarda talaba o'sha masg'ulotni qaytadan oqib, amallarning ketma-ketligini yana qayta o'rganish imkoniyatiga ega. Maslahatimiz bir mashg'ulotni to'la o'zlashtirib olganingizga ishonch hosil qilib, keyingi mashg'ulotga o'tganingiz maqsadga muvofiqdir.

Kompyuterli modellashtirish konstruktorlik loyihalash ishlarini sifatli bajarishda, foydalanuvchiga texnikaviy chizmalarni tez va malakali, yuqori darajali aniqlikda ishlab chiqishda, hamda bir vaqtda qog'ozga chiqarish imkoniyatini beradi.

Bu uslubning asosiy afzalliklaridan biri bu AutoCAD-2004 dasturini siqiq holda organish uslubi taklif etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan darslik sifatida foydalanuvchi dars beruvchilarga tavsiyamiz talabalar har bir mashg'ulotni o'zlashtirishda amallarni eslab qolishlari va takrorlashlariga ko'proq imkon berilganda, mashg'ulotlardan foydalanish ko'proq samara beradi. Hamda tavsiya etilgan variantlarning chizmalarini talabalarga mustaqil ish (uyga vazifa) sifatida o'zlashtirishlarini nazorat qilish va ularni baholash mumkin.

Qo'llanma Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti qurilishni boshqaruv fakulteti ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Tagrizchilar:

Toshkent axborot texnalogiyalari universiteti « Informatika va kompyuter grafikasi» kafedrasi mudiri t.f.d.,prof. B.Sh.Radjabov.

Toshkent Davlat Aviatsiya Instituti « Oliy matematika va informatika » kafedrasi mudiri, prof. G. Shodmonov

## So‘z boshi

Bu kurs hamma texnika oliy o‘quv yurtlari, maktab, litsey va kollejlarning chizmachilik asoslari to‘g‘risidagi ma'lumoti bo‘lgan, hamda kompyuterda ishlashning dastlabki bilimiga ega bo‘lgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Kurs 10 ta amaliy mashg‘ulotlardan iborat. Har bir darsda talabalarga bir nechta bir-biridan ma'nosi bilan farq qiladigan topshiriqlar bajarish taklif etiladi.

Qo‘llanmada keltirilgan topshiriqlarni grafik rasmiylashtirish -talabalarning fazoviy tasavvurini o‘stirishga hamda proyektsiyalash obyektlari to‘g‘risida geometrik tushunchalar olishiga qaratilgan. Shu sababli ayrim topshiriqlarda o‘qish maqsadida chizmalarni rasmiylashtirish qoidalari hisobga olinmagan.

Asosiy ishlarni o‘qituvchi nazorati ostida auditoriyada o‘tkazish talab qilinadi. Bu o‘rganilayotgan materialning tez qabul qilinishiga va bajarilayotgan ishlarning sifatini oshirishga olib keladi. Darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish uchun har bir talaba uchun semestr boshida alohida variant raqami beriladi va shu orqali har bir darsda alohida topshiriq berish uchun vaqt zarur bo‘lmaydi. Talabalarning chuqur va keng bilim egallashlari uchun ularni nazariy materiallar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu qo‘llanmada bir qator misollar, amaliy topshiriqlar, oraliq nazorat topshiriqlari (1-ilova), hamda individual kurs ishlarini bajarish namunalari va variantlari (2-ilova) keltirilgan. Misollarni talabalar uchun kompyuterda namoyish qilish mo‘ljallangan.

Misollarni namoyish qilish ko‘p vaqtni olmasligi kerak, ular dastur to‘g‘risida talabalarga umumiy ma'lumotlar yetkazilish uchun kerak. Ushbu misollar dasturni o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Individiual kurs ishlari chizmachilik albomlari va mashinasozlik chizmachiligi kitoblaridan olingan bo‘lib, ular dastur funksiyalarini chuqur o‘rganish va «Chizmachilik» kursini mukammal o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Bizning bu kursni o‘qitish tajribamiz shuni ko‘rsatayaptiki, kursni yaxshi o‘zlashtirish talabalar tomonidan eng kamida quyidagi 3 ta mavzudagi kurs ishi: 1-titul varag‘ini rasmiylashtirish; 2-tutashmalarni bajarish (Auto CAD-2004 muhitida tutashmalarni bajarish ko‘nikmasini o‘rganish); 3-berilgan ikkita proyeksiya orqali uchinchi proyeksiyani qurish, kesim va qirqimlarni bajarish.

O‘qituvchi bir qator adabiyotlardan tushuntirishlar berganidan va kompyuterda ko‘rsatib bo‘lganidan keyingina, talabalar topshiriqlarni o‘zlari mustaqil bajarishga kirishadilar. Shu bilan birga ko‘proq dasturning funksiyalari bilan ishlashni misollar bilan hamma talabalarga ko‘rsatishga ko‘proq ahamiyat berish tavsiya etiladi.

Bu qo‘llanmada 60 tadan ko‘proq individual grafik topshiriqlar va ularni bajarish misollari keltirilgan.

## 1-MASHG'ULOT.

1. **AutoCAD-2004 ga kirish.**
2. **AutoCAD-2004 sistemasini (tartibini) ishga tushirish.**
3. **AutoCAD-2004 ish stoli .**
4. **AutoCAD-2004 da ishlatiladigan koordinata sistemalari.**
5. **Dekart koordinatalari to'g'risida tushunchalar. «Kesim» funksiyasi.**

### 1. AutoCAD-2004 GA KIRISH

Hozirgi vaqtda uch o'lchamli kompyuterli modellashtirish vositalari foydalanuvchilarning e'tiborida bo'layapti va bu tasodifiy emas albatta. Ulardan foydalanish konstruktorlik-loyihalash ishlarining sifatli bajarilishi hamda foydalanuvchiga chizmalarni tez, sifatli, yuqori aniqlikda bajarish va qog'ozga chiqarish imkonini beradi.

Ushbu qo'llanmada kompyuterli modellashtirishni loyihalashtirishning universal grafik sistemasi muhitidan iborat bo'lgan AutoCAD-2004 dan foydalanish uslubi taklif etilgan. Bu AutoCAD-2004 tizimi Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, loyihalash jarayonida ko'p sonli foydalanuvchilar qulay holda ishlatishlari ko'zda tutilgan. Hozirgi davrda AutoCAD ning dasturiy ta'minoti kompaniyani eng yaxshi mahsuloti bo'lib, shaxsiy kompyuterlarning eng keng tarqalgan avtomatik loyihalash tizimi paketi hisoblanadi.

Hozirgi davrda har qanday dastur ta'minotining eng muhim xarakteristkasi buni boshqa dasturlar bilan birgalikda ishlata bilish xususiyatidir. Shu sababli AutoCAD tizimi katta imkoniyatlarga ega bo'lib, o'z mahsulotini 3D Studio tizimiga eksport qilgan holda uch o'lchovli modellarni animatsiya qilish imkoniyatini beradi. AutoCAD tizimida ishlab chiqilgan файллар Microsoft Office dasturining har qanday mahsulotlari bilan mos keladi .

Ushbu qo'llanmada AutoCAD –2004 ning siqiq holdagi ruscha versiyasining o'zbek tiliga o'girilgan varianti berilgan.

AutoCAD –2004 dasturi avtonom rejimida yoki lokal tarmoqda ham ishlashi mumkin. AutoCAD –2004 dasturining yaxshi ishlashi uchun quyidagi manbaalar zarur bo'ladi:

- Pentium 133 protsessori
- 32 Mbaytli operativ xotira
- Qattiq diskda 400-750 Mbaytli xotira
- 640 ga 480 VGA – displeyi

### 2. AutoCAD-2004 DASTURINI ISHGA TUSHIRISH.

AutoCAD-2004 dasturi ishga tushirilgandan keyin «Загрузка» dialog oynasi chiqariladi (1-rasm).




1-rasm. «Zagruzka» dialogli oynangni ish boshi.

- «Chizmani tanlash» –avval yaratilgan chizmani ochish imkonini beradi;
- «Boshidan boshlash» - chizma uchun yangi varaqni ochish imkonini beradi;
- «Shablondan foydalanish» –chizmachilikning kerakli uskunalarini o'z ichiga olgan shablonni tanlash imkonini beradi;
- «**Sehrgarni ishlatish**» –AutoCAD muhitida kerakli sozlashlarni amalga oshirish. Sozlashning ikki xil varianti: «**Advanced Setup**» («**Keng sozlash**») va «**Quick Setup**» («**Tez sozlash**») (**2-rasmga qarang**).

**Units (Birliklar)** –uzunlikning kiritish va chiqarish o'lchov birliklarini tanlash navbatdagi o'lchov birliklarini taklif etadi: **Decimal** (detsimetrlik); **Engineering** (muhandislik); **Architectural** (arxitekturali); **Fractional** (fraktsionli); **Scientific** (ilmiy). **Decimal** (detsimetrlik) o'lchov birligini tanlash tavsiya etiladi.

- **Angle (Burchaklar)** -Burchakni kiritish va chiqarish o'lchov birliklarini tanlash navbatdagi o'lchov birliklarini taklif etadi: **Decimal Degrees** (detsimetrli gradusli); **Deg/Min/Sec** (graduslar/minutlar/sekundlar); **Grads** (gradlarda); **Radians** (radianlarda); **Surveyor** (yorug'lik tomonlariga nisbatan). **Decimal Degrees** (burchakli detsemetrli) o'lchov birligini tanlash tavsiya etiladi.
- **Angle Measure (Burchakni o'lchash )** –burchakni o'lchashni boshlash topshirig'i burchakni noldan o'lchashning navbatdagi yo'nalishlarini taklif etadi: **East** (sharqiy); **North** (shimoliy); **West** (g'arbiy); **South** (janubiy); **Other** (ixtiyoriy). **East** (sharqiy) yo'nalishni tanlash tavsiya etiladi.

- **Angle Direction (Burchakni o'lchash yo'nalishi)** –burchak yo'nalishining musbat yo'nalishi tanlanganda, navbatdagi burchaklar yo'nalishlarirni taklif etadi: **Counter Clockwise** (soat miliga teskari); **Clockwise** (soat mili bo'yicha). **Counter Clockwise** (soat miliga teskari) yo'nalishini tanlash tavsiya etiladi.
- **Area (chegara)** –chizmaning chegaralarini aniqlashga imkon beradi.

**«Quick Setup» («Tez sozlash»)** varianti tanlanganda dastur faqat o'lchov birliklari **(Units)** va chegara **(Area)ni** tanlashni tavsiya etadi. .

**«Загрузка»** dialog oynasidan chiqishda (1-rasmga qarang.) Yana o'lchov birliklari : **(metrik** [mm], yoki inglizcha[futlar, dyumlar]) ni tanlash tavsiya etiladi.




2-rasm. Chizmachilik parametrlarini sozlovchi dialogli oyna.

## 3. AutoCAD-2004 dasturining ish stoli

**3-rasmda AutoCAD-2004ning** ish stoli tasvirlangan.

Ish stoliga quyidagilar kiritilgan:

- ***TUSHUVCHI MENYU QATORI*** –menyuning eng yuqori qatori;
- ***ASBOBLAR PANELI*** –yuqorida, ish stolining o'ng va chap tomonida.

Keyingi ishlarda foydalaniladigan asosiy asboblar paneli:

1) **«Standart asboblar»** paneli;
2) **«Obyekt xossasi»** paneli;
3) **«Chizish»** paneli;
4) **«O'zgartirish»** paneli;
5) **«O'lchamlar»** paneli;

6) «**Obyektni bog'lash**» paneli.

## ASBOBLAR PANELINI SOZLASH ALGORITMI.

1) sichqon klavishi o'ng tomonini asboblar panelining ixtiyoriy birortasini ko'rsatib, bosamiz.
2) ochilgan ro'yxatdan kerakli asboblar panelini belgilaymiz.

- ***GRAFIK MAYDON (Model maydoni)*** –ish stolining o'rta maydonini egallagan bo'lib, modellar chizmasini yaratish uchun mo'ljallangan. Model maydoni parametrlarini qo'llovchi o'ziga mos qulay ravishda o'zgartirishi mumkin.

## MODEL MAYDONINI SOZLASH ALGORITMI.

1) Sichqon klavishining o'ng tomonini grafik maydonning ixtiyoriy joyiga bosamiz, **Опции** punktini belgilaymiz.
2) Ochilgan «**Parametrlar**» dialog oynasida quyidagi sozlashlarni amalga oshirish mumkin.

**A) Oyna elementlari** ish stoli ko'rinishini sozlash, ya'ni;
1) **Rang** tugmachasi yordamida model maydoni rangini tanlash mumkin;
2) Dialog oynasiga chaqiriladigan shrift turini **Shrift** tugmachasi orqali sozlash mumkin.

**B) Format elementlari** maydoniga Varaq maydoni M2 umumiy ko'rinishini sozlash mumkin.

**V) "Aks ettirishni kengaytirish qobiliyati"** maydonida obyektlarning tasviri sifatini sozlash mumkin, ya'ni yoylar va aylanalar egri chiziqlarda segmentlar soni va h.k.

**G) Aks ettirish** maydoniga uch o'lchovli rang berilgan (3D) obyektlarni aks ettirish sifatini sozlash mumkin.

- ***DIALOGLI OYNA*** yordamida dastur bilan muloqot amalga oshiriladi. Bu oyna bir necha qatordan iborat bo'lib, ularda foydalanuvchi chiqaradigan ta'sir algoritmi aks etgan bo'ladi. Ko'pincha, dastlabki asboblar to'g'risida kerakli axborotni o'z ichiga oladi.

Muloqot oynasida kamida uchta qator qoldirilishi tavsiya etiladi. Sozlashni qo'lda, ya'ni sichqonning kursorini muloqot oynasining yuqori qismiga olib borib, uni siqib (cho'zib) yoki past (baland) ga surib amalga oshiriladi.

- **QATOR HOLATI (boshqarish tugmasi)** –chizmachilik rejimlari, ya'ni qo'shish/o'chirishni o'z ichiga oladi va ish stolining eng pastki qismida joylashgan.

O'z ichiga quyidagi elementlar (tugmalar)ni olgan:

**A)** ***QADAM (Шаг) (Snap)*** –sichqonning ma'lum qadam bilan harakatini ta'minlaydi.

***Sozlash bajariladi:*** Asboblar/Chizmachilik parametrlari qo'shimcha "Bog'lash va setka".

***Qadam rejimini qo'shish (o'chirish)*** **F9** funktsional klavishi orqali yoki ***ShAG (Qadam)*** knopkasini sichqon bilan bosish orqali amalga oshiriladi.

***B) TO'R (Grid)*** - rasmni aniq chiqarish, va ishni yengillashtirgan holda, ortogonal setkasining bog'larini ekranda olish imkoniyatini beradi.

***Sozlash bajariladi:*** Asboblar Chizmachilik parametrlari qo'shimcha "Bog'lash va to'r".

***Setka rejimini qo'shish (o'chirish)*** **F7** funksional klavishi yoki sichqon bilan SETKA tugmasini bosib amalga oshiriladi.

***V) ORTO (Ortho)*** – chiziq chizish ortogonal rejimini qo'shadi (o'chiradi).

***G) POLYaR (Polar)*** –chizishning polyar rejimini qo'shadi (o'chiradi), ya'ni dastur avtomatik ravishda trassirovkali turlar holida obyektlar chizmasi yo'nalishni va burchagini ko'rsatib beradi.

***Sozlash bajariladi:*** ***Asboblar/Chizmachilik parametrlari*** qo'shimcha ***"Bog'lash va setka".***

***Polyarnaya trassirovka rejimini qo'shish (o'chirish)*** **F10** funksional klavishi yoki sichqonni ***POLYAR*** tugmasiga bosish orqali bajariladi.

***D) VO'RV (Osnap)*** – obyektli bog'lash (obyektlarni tekislash), ayrim nuqtalarni ko'rsatish imkonini (ya'ni masalan, kesma va yoy o'rtasi, aylana markazi va aylana va yoy kesishish nuqtasi) beradi.

***Sozlash bajariladi:*** ***Asboblar/Chizmachilik parametrlari*** qo'shimcha ***"Bog'lash va setka".***

***Привязка объекта (Obyektni bog'lash) rejimini qo'shish (o'chirish)*** **F3** funksional klavishi orqali yoki sichqonning VO'RV tugmasini bosish orqali bajariladi.

***E) СЛЕД (Object Snap Tracking) –Osnap*** dagi nuqtani boshqarish imkonini beradi, kursor harakatlanganda vektor trassirovkasi hosil bo'ladi.

***Sozlash bajariladi:*** ***Asboblar/Chizmachilik parametrlari*** qo'shimcha ***"Bog'lash va setka".***

***След rejimini qo'shish (o'chirish)*** **F11** funksional klavishsi yoki ***СЛЕД*** tugmani sichqon bilan bosish orqali bajariladi. .

***J) VESLIN*** –obyektlar chiziqlari qalinligini aks ettirishni qo'shadi (o'chiradi).

***Z) MODEL*** –model maydonidan varaq maydoniga o'tish imkonini beradi.

***IZOH.*** Aniq asboblarning vazifasi keng holda quyida keltiriladi.




3-rasm. AutoCAD-2004RU ning ish stoli

## 4. AutoCAD-2004 da ISHLATILADIGAN KOORDINATALAR SISTEMASI

Ikki yoki uch fazali maydonda ishlaganda, foydalanuvchiga har xil koordinatalar sistemasidan foydalana bilish talab qilinadi. **AutoCAD** quyidagi koordinatalar sistemasidan foydalaniladi: **dekart koordinatasi, koordinatalar kiritishning polyar usuli, silindrik koordinatalar, Sharli koordinatalar** (oxirgi ikkitasi ko'rib chiqilmaydi).

### 4.1. DEKART KOORDINATALARI TO'G'RISIDAGI TUSHUNCHALAR. KESMA FUNKSIYASI.

Klaviaturadan Dekart koordinatalarini kiritish uchta son (yoki x ,y, z) vergul orqali amalga oshiriladi. **Absolyut** (koordinata boshidan hisoblanuvchi) va **nisbiy** (oxirgi nuqtadan hisoblanadigan) koordinatalar turlari mavjud.
**Absolyut dekart koordinatalar sistemasi** nuqtalar koordinatasi ma'lum bo'lgan holda ishlatiladi. Umumiy holda koordinatalarni kiritish quyidagicha bo'ladi: x,y.




**4.1-rasm. Dekart koordinatalar sistemasi.**
**a) Absolyut koordinatalar kiritish misoli.**
**b) Nisbiy koordinatalar kiritish misoli.**

- « **Kesma** » (**Отрезок**) tugmasi.

**AutoCAD – 2004** muhitida dekart sistemasida (**absolyut**) ishni « **Kesma** » (**Отрезок**) misolida keltirish mumkin. .

Quyidagi funktsiya ostilarni taklif etadi:

**Close (Замкнуть)(Tutashtirish)** – birinchi va kiritilgan koordinatalarning oxirgisi bilan tutashtirish;

**Undo (Отменить)(Bekor qilish)**- oxirgi koordinatani kiritishni bekor qilish.

**Chizish** paneli « **kesma** »( **Отрезок**) tugmasi.

**Misol.**

Tomonlari 100 bo'lgan kvadratni absolyut koordinatalar usuli bilan chizish:

1. Command: _line Specify first point: *20,20* *Enter*
2. Specify next point or [CloseG'Undo]: *120,20* *Enter*
3. Specify next point or [CloseG'Undo]: *120,120* *Enter*
4. Specify next point or [CloseG'Undo]: *20,120* *Enter*
5. Specify next point or [CloseG'Undo]: *S* *Enter*

**O'zbek tiliga o'girgandagi muloqot**

1. Komanda: _chiziq birinchi nuqtani ko'rsating:*20,20 Enter*
2. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/bekor qil] *120,20 Enter*
3. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/bekor qil]:*120,120Enter*
4. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/bekor qil]: *20,120 Enter*
5. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/bekor qil]: *S Enter*




**IZOH**

**AutoCADda** ishlash jarayonida ko'pincha keraksiz obyektlarni olib tashlashga to'g'ri keladi. **AutoCADda** obyektlarni olib tashlash usulidan biri quyidagicha amalga oshiriladi. obyekt (obyektlar) chegaralanadi va **Delet** klavishasi bosiladi.

Ko'pincha **AutoCADda** obyektlar sichqon yordamida ajratiladi. Sichqon bilan ajratishning bir nechta usullari bor:

1. Obyektni (obyektlarni) sichqonning o'zi bilan ajratish.
2. Obyekt (obyektlarni) maydon bilan ajratish. Maydon bilan ajratishning ikki varianti bor:

**a)** Obyektni (obyektlarni) maydonning **o'ngidan chap** tomoniga qarab ajratish va bu holda maydondagi hamma obyektlar ajratiladi;

**b)** Obyektni (obyektlarni) maydonning **chap tomonidan o'ng tomoniga** qarab ajratish va bu holda maydon ichiga tushgan obyektlar ajratiladi.

Ajratish **ESC** klavishini ikki marta bosish bilan amalga oshiriladi.

**1-Topshiriq:**




Dekart sistemasida absolyut koordinatalarda tomonlari **100X70** ga teng bo'lgan va boshlanish nuqta koordinatalari **25,70** bo'lgan to'rtburchak chizilsin.

**Nisbiy dekart koordinatalar sistemasi** nuqtalar koordinatasi noma'lum bo'lgan holda qo'llaniladi. Bu holda koordinatalar kiritish, oxirgi koordinatalarni 0,0 ga tashlash yo'li orqali amalga oshiriladi. Koordinatalarni 0,0 ga tashlash kiritilayotgan nuqta koordinatalridan oldin «@» simvolini kiritish yordamida bajariladi. Bu holda kiritilayotgan nuqta 0 ga teng deb olinadi va oxirgi kiritilgan nuqtaga nisbatan hisoblanadi. Umuman, koordinatalarni kiritish quyidagicha bo'ladi: @x,y.

Koordinatalarni dekart sistemasida (nisbiy) ishlashni quyidagi misolda ko'rib chiqish mumkin

**Misol.**

Tomonlari 100 ga teng bo'lgan kvadratni nisbiy koordinatlar usuli bilan chizish:

1. Command: _line Specify first point: ***sichqon bilan ko'rsatamiz***
2. Specify next point or [CloseG'Undo]: ***@100,0*** ***Enter***
3. Specify next point or [CloseG'Undo]: ***@0,100*** ***Enter***
4. Specify next point or [CloseG'Undo]: ***@-100,0*** ***Enter***
5. Specify next point or [CloseG'Undo]: ***S*** ***Enter***

**Muloqot o'zbek tiliga o'girilganda**

1. Komanda:-chiziq birinchi nuqtani ko'rsating:***sichqon bilan ko'rsatamiz***
2. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@100,0 Enter***
3. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@0,100 Enter***
4. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@-100,0 Enter***
5. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***S Enter***




**2-topshiriq:**

Dekart sistemasida nisbiy koordinatalarda tomonlari **80X120** bo'lgan to'rtburchak chizish. Birinchi koordinata sichqon bilan ko'rsatiladi.




## 2-MASHG'ULOT.

1. **Polyar usuli bilan koordinatalar kiritish.**
2. **Koordinatalar va kesmalar uzunligini kiritishning boshqa usullari.**
3. **Masshtablash tugmasi.**
4. **Masshtabni avtomatik sozlash.**
5. **AutoCAD-2004da obyektlarni formatlash (obyektlarning turi, qalinligi va rangini berish).**
6. **« Aylana »( Окружность) funktsiyasi.**

### 4.2. KOORDINATALAR KIRITISHNING POLYAR USULI

Koordinatalar kiritishning polyar usuli kesmaning uzunligi va XY tekisligida uning burchagini kiritishdan iborat. Burchakni kiritishda nolik yo'nalish sharqda (East), musbat yo'nalish esa, soat miliga teskari bo'ladi. Umumiy ko'rinishda koordinatalar kiritish quyidagicha: @l<α.Bu yozuvda @ simvoli oxirgi kiritilgan koordinatani 0 ga tashlashni bildiradi;

**l** –kesma uzunligi:

**α** –kesmaning XY tekisligidagi burchagi.




4.2-rasm. Koordinatalarni polyar sistemasi.

Polyar sistemasidagi koordinatalarni **AutoCAD – 2004** muhitida ishni quyidagi misolda ko'rib chiqish mumkin.

**Misol.**

Tomonlari 100 bo'lgan kvadratni **polyar koordinatalar usuli** bilan chizish:

1. Command: _line Specify first point: ***sichqon bilan ko'rsatamiz***
2. Specify next point or [Close/Undo]: ***@100<0*** ***Enter***
3. Specify next point or [Close/Undo]: ***@100<90*** ***Enter***
4. Specify next point or [Close/Undo]: ***@100<180*** ***Enter***
5. Specify next point or [Close/Undo]: ***S*** ***Enter***

**Muloqot o'zbek tiliga o'girilganda**

1. Komanda:-chiziq Birinchi nuqtani ko'rsating:***sichqon bilan ko'rsatamiz***
2. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@100<0*** ***Enter***
3. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@100<90*** ***Enter***
4. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***@100<180*** ***Enter***
5. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***S*** ***Enter***




**1-topshiriq:**

Tomonlari **80X120** bo'lgan to'rtburchak polyar sistemasida chizilsin. Birinchi koordinata sichqon bilan ko'rsatiladi.



## 4.3. KOORDINATALAR VA CHIZIQLAR UZUNLIGINI KIRITISHNING BOSHQA USULLARI

Yuqoridagilar bilan birga **masofani to'g'ri yozish** usuli ishlatiladi. Bu usul **chiziq uzunligini tez kiritishda** ayniqsa samaralidir. Bu holda nuqta so'ralganda sichqon kursorini kerakli yo'nalishda surish va sonli miqdorni komanda qatoriga kiritish yetarli bo'ladi.

**Misol.**

Tomonlari 100 bo'lgan kvadratni **chiziq uzunligini tez kiritish usuli** bilan chizish: ***ORTO*** yoki ***POLYaR*** rejimi yoqiladi va sichqon bilan yo'nalish ko'rsatiladi va uzunlik kiritiladi:

1. Command: _line Specify first point: ***sichqon bilan ko'rsatamiz***
2. Specify next point or [Close/Undo]: ***110*** ***Enter***
3. Specify next point or [Close/Undo]: ***100*** ***Enter***
4. Specify next point or [Close/Undo]: ***110*** ***Enter***
5. Specify next point or [Close/Undo]: ***S*** ***Enter***

**Muloqot o'zbek tiliga o'girilganda**

1. Komanda: _chiziq Birinchi nuqtani ko'rsating: ***sichqon bilan ko'rsatiladi***
2. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]:***110*** ***(yo'nalish sichqon bilan ko'rsatiladi)*** ***Enter***
3. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]:***110*** ***(yo'nalish sichqon bilan ko'rsatiladi)*** ***Enter***
4. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]:***110*** ***(yo'nalish sichqon bilan ko'rsatiladi)*** ***Enter***
5. Keyingi nuqtani ko'rsating, yoki [Tutashtir/Bekor qil]: ***S*** ***Enter***



**2-Topshiriq:**

Tomonlari **100X100** bo'lgan kvadratni uzunligini tez kiritish usuli bilan chizish. Birinchi nuqta sichqon bilan ko'rsatiladi.



## 5. MASSHTABLASH TUGMASI.

**AutoCADda** boshqa har qanday grafik tizimdagi kabi chizmaning u yoki bu qismini kattalashtirish yoki kichraytirishga to'g'ri keladi. Bu tizimda oson ishlashga va chizmani bajarishda kam vaqt sarf qilishga olib keladi. Shu sababli bu tizimni ishlab chiqqanlar foydalanuvchining ishini yengillashtirish maqsadida bir qator tugmalarni o'ylab topganlar.

- **3D Орбита** – 3D obyektlarning burilishi;
- **Панорама реального времени (haqiqiy vaqtdagi panorama)**– modelni fazoda qulay holatga kelguncha surish;
- **Масштаб реального времени (haqiqiy vaqtdagi masshtab)**– haqiqiy vaqt rejimida tasvirni kattalashtirish kichraytirish.
- **Окно измерения масштаба (masshtabni o'lchash darchasi)** – buyruqlar ro'yxatini ochadi, - kattalashtirish/kichiklashtirishning turli usullarini berish uchun asboblar to'plami.
- **Предидущий масштаб (Avvalgi masshtab)** – tasvirning avvalgi masshtabiga qaytarish.

## 6. MASSHTABNI AVTOMATIK SOZLASH.

Masshtabni avtomatik sozlash quyidagicha amalga oshiriladi:

a. Menyu punkti **Вид/3Dvid/Верх;**
b. Ochilgan dialog oyna **«Вид (ko'rinish)»da Верх(balandga)** punktini tanlaymiz;
c. **«Текущий» (joriy)** tugmasini bosamiz

**3-Topshiriq:**

1000000 uzunlikka ega bo'lgan kesma chizilsin. Ko'rinish Avtomatik sozlansin.

**4-Topshiriq:**

0,000001 uzunlikka ega bo'lgan kesma chizilsin. Ko'rinish avtomatik sozlansin.

## 7. AutoCAD – 2004da OBYEKTNI FORMATLASH.

Har qanday obyektlarni ishlab chiqishda ularga rang, xil va chiziq qalinligini **«Типи линии», (Chiziqlar turi), «Цвет», (Ranglar) «Вес линии» (Chiziq qalinligi)** tugmalari yordamida aniqlash mumkin bo'ladi (5-rasmga qarang).




5- rasm « Rang kn

### 7.1.RANG TANLASH

***AutoCADda*** rang tanlashda 255 rangdan iborat rang palitrasidan foydalaniladi. Rang turlarini tanlashda **«Цвета» (Ranlar)** tugmasi ochiladi va **Другое (Boshqa)** punkti ko'rsatiladi. Bundan tashqari **BYLAYER (QATLAM BO'YIChA)** – rangni avtomatik ravishda o'rnatadigan, **BYBLOCK (BLOK BO'YIChA)** – blok tuzganda avtomatik ravishda rangni o'rnatadigan ***Continuous*** –uzluksiz o'rnatadigan muhim so'zlar beriladi.

**RANG BERISH ALGORITMI**

1) obyekt (obyektlar)ni belgilaymiz;
2) **«Цвета» (Ranglar)** tugmasi ochgan ro'yxatdan kerakli rangni tanlaymiz **(«другое» (boshqa)** punkti ko'rsatilganda **AutoCAD** rang palitrasidan qo'shimcha ranglarni tanlaymiz);
3) Ajratitlgan obyektni **Esc** klavishini ikki marta bosib, olib tashlaymiz.

## 7.2.CHIZIQ TURINI TANLASH

Chiziq turini tanlash uchun **«Типи линии» (Chiziq turlari)** tugmasi ishlatiladi. Agar kerakli chiziq turi **« Типи линии » (Chiziq turlari)** ro'yxatida yo'q bo'lsa, **«Другое» (Boshqa)** punktiga sichqon bilan ko'rsatiladi (6-rasmga qarang.), va unda:

- **«Загрузить» (Yuklash)** tugmasi orqali **« Загрузить или Вигрузить Тип линии» (Yuklash yoki bo'shatish)**dialog oynasi yuklanadi va unda kerakli chiziq turi tanlanadi;
- **Удалить (Olib tashlash)** tugmasi orqali ajratilgan chiziq turi yo'qotiladi;
- **Текущий (Joriy )** tugmasi orqali belgilangan chiziq turi joriy bo'lib qoladi;
- **Показать(скрить)/детали (Ko'rsatish (bekitish)/detallar)**–tugmasi orqali ushbu chiziq turi formatlanadi.

Bundan tashqari **BYLAYER (QATLAM BO'YICHA)** chiziq avtomatik ravishda o'rnatadigan, **BYBLOCK (BLOK BO'YICHA)** blok tuzganda avtomatik ravishda rangni o'rnatadigan, ***Continuous*** –uzluksiz o'rnatadigan muhim so'zlar beriladi.




6-rasm. «Chiziqlar turi menedjeri» dialog oynasi.

## CHIZIQ TURINI TANLASH ALGORITMI:

1) obyektni (obyektlarni) belgilaymiz;
2) **«Типи линии» (Chiziq turlari), «другое» (boshqa)** punkti;
3) Ochilgan dialogli oyna **«Менеджер типов линий » (Chiziqlar turi menedjeri)da «Загрузить» (Yuklash)** tugmasini bosamiz,
4) Ochilgan ro'yxatdan kerakli chiziq turini (masalan, **Dashdot**) tanlaymiz;

**Izoh.** Chiziq turini qo'shimcha sozlash **«Фактор масштабирования» (Masshtablash faktori)** yacheykasidagi qiymatni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi

5) **OK/OK;**
6) Ajratilganni **Esc** klavishini ikki marta bosib yo'qotiladi.

## 7.3.CHIZIQ QALINLIGINI TANLASH

Chiziq qalinligini tanlash uchun **«Вес линии»** tugmasi ishlatiladi. Ochilgan ro'yxatda chiziqning kerakli qalinlik o'lchamini tanlash mumkin. Bundan tashqari **BYLAYER (QATLAM BO'YIChA)** – rangni avtomatik ravishda o'rnatadigan, **BYBLOCK (BLOK BO'YIChA)** – blok tuzganda avtomatik ravishda rangni o'rnatadigan, ***Continuous*** –uzluksiz o'rnatadigan muhim so'zlar beriladi.

### ChIZIQ QALINLIGINI TANLASH ALGORITMI:

1) obyekt (obyektlar) belgilanadi.
2) **«Вес линии»** tugmasi.
3) Ochilgan ro'yxatdan kerakli qalinlikni tanlaymiz.
4) **Esc** klavishini ikki marta bosib, belgilangan qalinlikni yo'qotamiz.
5) **«Веслин»** tugmasini bosamiz.

**5-topshiriq:**

Tomonlari **100X70** bo'lgan to'rtburchakni kesimlar holida shtrix punktir chiziqlar yordamida chizilsin. Tomonlariga har xil rang va chiziq qalinligiga **0,3** tanlansin. Koordinata kiritish usulini tanlash ixtiyoriy.




## 8. AYLANA FUNKSIYASI

**-«Окружность» (Aylana)** tugmasi.

**«Рисования» (Rasm solish)** paneli, **«Круг» (doira)** yoki menyu punkti **Черчение/Криг (Chizmachilik/doira).**

**YORDAMCHI FUNKSIYALAR:**

***Markaz nuqtasi va radius kattaligi bo'yicha*** (po umolchaniyu);
**D** – Markaz nuqtasi va diametr kattaligi bo'yicha;
**2P** –Ikki nuqta bo'yicha;
**3P** –Uchta nuqta bo'yicha;

**TTr** - Radius o'lchami va ikkita urinma bo'yicha;
***Uchta urinma bo'yicha.***

Aylanani chizish bir necha usul bilan amalga oshiriladi.

1) markaz nuqtasi, radius kattaligi
2) markaz nuqtasi, diametr kattaligi
3) ikki nuqta orqali.
4) uchta nuqta orqali.
5) ikkita urinma, radius
6) uchta urinma

**Izoh.** Oxirgi ikki usul ko'pincha tutashmalarni kurishda ishlatiladi.
**"Aylana"** funktsiyasining ishini keyingi misolda ko'rish mumkin:

**Misol.**

***15 radiusli aylana chizish***

**1.** Command: _circle Specify center point for circle or [3PG'2PG'Ttr (tan tan radius)]:( ***sichqon bilan ko'rsatiladi)*** **2.** Specify radius of circle or [Diameter]: 15 **Enter**

**Muloqot o'zbek tilida.**

**1.** Buyruq: _aylana markazi nuqtasini ko'rsating, yoki [3 Nuqtalar/2 Nuqtalar/KKr(urin.urin radius)]: ***uni sichqon bilan ko'rsatamiz.***
**2.** Aylana radiusi yoki [Diametrini]: ko'rsating 15 **Enter**




**Misol.**

Diametri 45,785 va markazi 100,100 nuqtasida bo'lgan aylana chizish.

**1.** Command: _circle Specify center point for circle or [3P/2P/Ttr (tan tan radius)]: **100,100** **Enter**
**2.** Specify radius of circle or [Diameter]: D **Enter**
**3.** Specify diameter of circle <0.00>: 45,785 **Enter**

**Muloqot o'zbek tilida.**

1.Buyruq: _aylana Aylana markazi nuqtasini ko'rsating yoki
3. nuqtalar/2 Nuqtalar /KKr(o'rin.o'rin radiusi)]: ***sichqon bilan ko'rsatamiz: 100,100*** **Enter**
2. Aylana radiusi yoki [diametrini]: ko'rsating: ***D*** **Enter**
3. Aylana diametrini ko'rsating: ***45,785*** **Enter**




**6-topshiriq:**
Radiusi **50** bo'lgan aylana chizilsin.




**7-topshiriq:**
Diametri **78,78** bo'lgan aylana chizilsin..




## 3-MASHG'ULOT.

1.«Aylana» funksiyasi;
2.Bog'lovchilar to'g'risida tushuncha. Bog'lovchilar «Привязать к конечной точке» (Oxirgi nuqtaga bog'lash), «Привязать к средней точке» (O'rtadagi nuqtaga bog'lash), «Привязать к центру окружности» (Aylananing o'rtasiga bog'lash), «Привязать к квадранту» (Kvadrantga bog'lash);
3.«Переместить» (Ko'chirish) funksiyasi;
4. «QIRQISH (Trim)» (Qirqim) funksiyasi.
5.Yordamchi "Urinma., Urinma., Radiusi" funksiyasi yordamida tutashmalar qurish;

### 8. 1. "AYLANA" FUNKSIYASI (DAVOMI).

**Misol.**

Bir-biridan 100 masofada va 300 burchak ostida joylashgan ikkita nuqta orqali aylana chizilsin. Birinchi nuqtaning koordinatalari 100,100.

Menyu **Черчении/Круг/2Точки (Chizmachilik/Doira/2ta nuqta)** punkti.
**1.***Command: _circle Specify center point for circle or [3P/2P/Ttr (tan tan radius)]:*
*_2P Specify first end point of circle's diameter:* ***100,100 Enter***
**2.***Specify second end point of circle's diameter:* ***@100<30 Enter***

**Muloqot o'zbek tilida.**
**1.***Buyruq: _aylana Aylana markazi nuqtasini ko'rsating yoki [3 Nuqtalar/2 Nuqtalar/KKr(urin.urin radius)]: _2 nuqta Birinchi oxirgi nuqtani ko'rsating aylananing diametri:* ***100,100 Enter***
**2.**Ikkinchi oxirgi nuqtani ko'rsating, aylananing diametri: **@100<30 Enter**




**Misol.**

To‘g‘ri burchakli uchburchakning uchlari bo‘lgan uchta nuqta orqali aylana chizish.

Menyu punkti **Черчении/Круг/3Точки (Chizmachilik/Doira/3ta nuqta).**

**1.***Command: _circle Specify center point for circle or [3P/2P/Ttr (tan tan radius)]: _3p Specify first point on circle:* ***мышкой указываеть первую вершину равностороннего треугольника***

**2.***Specify second point on circle:* ***мышкой указываеть вторую вершину равностороннего треугольника***

**3.***Specify third point on circle:* ***мышкой указываеть третую вершину равностороннего треугольника***

**Muloqot o‘zbek tilida .**

**1.***Buyruq: _aylana Aylana markazi nuqtasini ko‘rsating yoki [3 Nuqtalar/2 Nuqtalar/KKr(urin.urin radiusi)]: _3 nuqta Aylananing birinchi nuqtasini ko‘rsating aylananing diametri:* ***sichqon bilan teng tomonli uchburchakning birinchi uchini ko‘rsatamiz***

**2.**Aylananing ikkinchi nuqtasini ko‘rsating: ***sichqon bilan teng tomonli uchburchakning ikkinchi uchini ko‘rsatamiz***

**3.**Aylananing uchinchi nuqtasini ko‘rsating: ***sichqon bilan teng tomonli uchburchakning uchinchi uchini ko‘rsatamiz***



**Misol.**

Ikkita aylanaga urinma bo'lgan, radiusi 20 ga teng aylana chizish.

Menyu punkti **Черчение/Круг/Касат., Касат., Radius (Chizmachilik/Doira/Urin., Urin., Radius)**

1.Command: _circle Specify center point for circle or [3P/2P/Ttr (tan tan radius)]: _ttr

2.Specify point on object for first tangent of circle*: **sichqon bilan birinchi aylananing I choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***

3.Specify point on object for second tangent of circle*: **sichqon bilan birinchi aylananing II choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***

4.Specify radius of circle <0.00>: *20 Enter*

**Muloqot o'zbek tilida.**

1.*Aylana markazi nuqtasini ko'rsating yoki [3 Nuqtalar/2 Nuqtalar /KKr(urin.urin radiusi)]:: **O'r o'r r***

2.*Aylana birinchi urinma nuqtasini ko'rsating: **sichqon bilan birinchi aylananing I choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***

3.*Aylana ikkinchi urinma nuqtasini ko'rsating: **sichqon bilan birinchi aylananing II choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***

4.*Aylana radiusini ko'rsating <0.00>: 20 Enter*




**Misol.**

Aylanalarga uchta urinmali aylanani chizish punkt Menyu **Черчение/Круг/Касат., Касат., Касат (Chizmachilik/Doira/Urin., Urin., Urin).**

**1.***Command: _circle Specify center point for circle or [3P/2P/Ttr (tan tan radius)]: _3p Specify first point on circle: _tan to* – ***sichqon bilan birinchi aylananing I choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***
**2.***Specify second point on circle: _tan to* - ***sichqon bilan ikkinchi aylananing II choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***
**3.***Specify third point on circle: _tan to* - *sichqon* ***bilan uchinchi aylananing IV choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***

**Muloqot o'zbek tilida.**
**1.**Aylana markazi nuqtasini ko'rsating yoki [3 Nuqtalar/2 Nuqtalar /KKr(Urin.urin radiusi)]: _3 nuqta Aylananing birinchi nuqtasini ko'rsating:urinma- **sichqon bilan birinchi aylananing I choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz**
**2***Aylanadagi ikkinchi nuqtasini ko'rsating:urinma* – ***sichqon bilan birinchi aylananing II choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***
**3.** *Aylanadagi uchinchi nuqtani ko'rsating:urinma* – ***sichqon bilan birinchi aylananing IV choragida ixtiyoriy nuqtani ko'rsatamiz***




## 9.BOG‘LOVCHILAR TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA.

- **Привязать к конечной точке (endpoint) (Oxirgi nuqtaga bog‘lash)** – obyektning yaqin oxirgi nuqtasiga bog‘lash;
- **Привязать к средней точке (Midpoint) (O‘rtadagi nuqtaga bog‘lash)**– obyektning yaqin o‘rta nuqtasiga bog‘lash;
- **Привязать к конечной точке (Markazga bog‘lash)**– aylana yoki yoylarning o‘rtasiga bog‘lash;

- **Привязка к квадранту (quadrant) (Kvadrantga bog'lash)**– aylana yoki ellips yoyining yaqin kvadratiga bog'lash ;
- **Привязка к пересечению (Intersection) (Kesishuvchiga bog'lash)**– ikki obyektning kesishuviga bog'lash;
- **Привязка к касательной (tangent) (Urinmaga bog'lash)** – Urinma bilan aylana, yoy yoki boshqalar, hosil qilgan oxirgi nuqtaga bog'lash;

- **Привязка к неорпендикуляру (перпендикуляр (Perpendikulyarga bog'lash)** –Perpendikulyar Bilan aylana, ellips, spayn, yoy yoki boshalar hosil qilgan oxirgi nuqtasiga bog'lash;
- **Привязка к ближайшему (nearest) (Eng yaqin nuqtaga bog'lash)** – obyektda yotgan har qanday nuqtaga bog'lash.

**Izoh.** Bu qismda bog'lovchilarning harakatini aniq misolda ko'rsatish kerak .

## 1 HAMMA BOG'LOVCHILARNI O'CHIRISH. BOG'LOVCHILARNI SOZLASH.

•**Obyektlarni bog'lash** rejimini yoqish (o'chirish) funksional klavishi F3 yoki sichqon bilan **VURV** knopkasini bosish orqali bajariladi.
•Sozlash bajariladi: **Инструменты/ Параметры черчении (Asboblar/chizmachilik parametrlari)** qo'shimcha **Привязка объекта(obyektni bog'lash).**

## 10. "KO'CHIRISH"FUNKSIYASI.

-**«Переместить» (Ko'chirish)** tugmachasi.
**«Изменить» (o'zgartirish)** Panelidagi « **Переместить » (ko'chirish)** tugmachasi yoki **Изменить/Переместить (o'zgartirish/ko'chirish)** menyu punkti.

**Misol.**

